

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY FIDOB PALATASI

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 4 - 10 - dekabr N:49 (66590)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» hukumatga qarashli
bo'lmagan xalqaro xayriya
jam'armasi.

8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

III BOB

Konstitutsiya va Qonunning ustunligi

15-modda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

16-modda. Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Murod RAHMON

HAYOTIMIZ QOMUSI

O'qish, ishlash, turmushga yo'l-yo'riq, mash'al,
Halol, yaxshi yashashga dasturul amal.
Adolatdir shiori, poklik – qarori,
Baxtimiz poydevori, yurt iftixori.

Unda–Vatan, xalq uchun hayot qonuni,
Unda har bir yurakning umr mazmuni.
Bugungi ham ertasi kitob etilgan,
Inson uchun ne kerak – bari bitilgan.

U dilni yoritar oftob misoli,
Faoliyat kaliti, axloq timsoli.
Unda iqbol... orzuga yetmoq yo'llari,
O'rgatar har sohada burch-u farzimiz.

Ogohlik, hushyorlikka etadi da'vat,
Uning har bir bobidan yashnaydi davlat.
Mujassam unda hikmat, dono zikrlar,
Inson uchun eng muhim – to'g'ri fikrlar.

U – odob, murodimiz, ezgu yo'llanma,
U – mamlakat, millatga oliy qo'llanma.
Eng odil qoidalar – or-nomusimiz,
Konstitutsiya – bu bizning baxt qomusimiz!



Baxtimiz qomusi

BEBAHO BOYLIGIMIZ

«Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburlidirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir».

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 49-modda.

Madaniy va me'moriy yodgorliklarimiz necha-necha ming yillar oldin yashab o'tgan ulkan daraxtlarimiz tomirlari, bobolarimiz mehnati samarasidir. Ilm-fan, tasviriy san'at, me'morchilik, musiqa va ko'plab sohalardan so'zlaydigan yodgorliklarni avaylamay bo'ladimi axir? Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurning ko'rkam qad rostlagan masjid, madrasalaridan, masalan, Tabrizdagi masjid, Sherozdagi saroy, Bag'doddagi madrasa, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi kabi ko'plab inshootlarni sanab o'tish mumkin. Ularning yana bir qancha «Bog'idilkusho», «Bog'ichinor», «Bog'ibehisht», «Bog'ibaland», «Davlatobod», «Bog'ishamol», «Bog'inav» kabi bog'larining ta'rifi yetti iqlimga ketgan. Madaniy meroslarimizdan «Temur tuzuklari», Alisher Navoiyning «Hamsa» asari, Boburiylar sululasidan «Tojmahal», Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, XX-XXI asr o'zbek adabiyotining durdonalari bizda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Shu bois ham; ajdodlardan bizgacha yetib kelgan bunday bebaho boylklarni ko'z qorachig'idek asrashimiz shart.

Ozoda RAHIMOVA,
Moliya akademik litseyining III bosqich talabasi.

Assalomu alaykum, aziz o'zbekistonlik do'stlarim! Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» orqali biz ham ko'plab do'stlar orttirdik. Mana oltin kuz fasli ham oxirlab boryapti. Borliq oltin rangga burkangandek, go'yo. Ayniqsa, o'rmonning qoq



AYYOMINGIZ MUBORAKI!

o'rtasida joylashgan Tatarka qishlog'imizni shu kunlarda bir ko'rsangiz edi... Qayoqqa qaramang, g'arq pishgan o'rmon mevalariga, qo'ziqorinlarga ko'zingiz tushadi. Qorning tagida ham pishaveradigan kalika, ryabina qo'ziqorinlaridan terib, uyimizga ham olib ketamiz. Qani endi yaqinroq yashasag-u, bir-birimizga sovg'alar yuborsak. Maktabimizga Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridan Azizbek Ma'murov, Urganch shahridagi 10-maktabdan Go'zal Ozodovalar xat yo'llashibdi. Bizga bir dasta «Tong yulduzi» gazetasini yuborgan

Toshkent shahridagi 27-maktab o'quvchisi Sevara Mirzayevadan behad minnatdormiz. Qishlog'imizga O'zbekistondan ko'chib kelgan Mariya ismli qiz gazetalarni o'qib, tarjima qilib beradi. Zora shu tariqa biz ham o'zbek tilini o'rganib olsak...

Gazetangiz orqali sizning hayot tarzingiz, qiziqish va intilishlaringiz, sevimli mashg'ulotlaringiz haqida ko'p narsalarni bilib oldik. Yaqinda diyoringizda nishonlanadigan Konstitutsiya bayrami bilan tabriklaymiz. Yurtingiz tinch, osmoningiz musaffo bo'lsin!

Endi o'zimiz haqimizda ham yozmoqchiman: Bizning yurtimiz Chernobl halokatidan eng ko'p ziyon ko'rgan respublikalardan sanaladi. Shuning uchun ham har yili 3-dekabr – «Nogironlar kuni»da hukumatimiz tomonidan bizlar uchun to'kin dasturxon yoziladi, qimmatbaho sovg'a-salomlar ulashiladi. Salomatligimizni tiklab, havo almashtirib kelishimiz uchun Polsha, Angliya kabi davlatlarga bepul sayohatga yuborishadi. Bunday g'am-xo'rliklarga javoban biz ham a'lo baholarga o'qib, yurtimiz koriga yaraydigan o'g'il-qizlar bo'lib kamol topishga harakat qilyapmiz.

Salom bilan Natasha BELANOVA,
3-«A» sinf o'quvchisi.
Belorus Respublikasi, Mogilyov viloyati,
Osipovich tumanidagi Tatarka qishlog'i.
10-noyabr 2006-yil.

TABRIKLAYMIZ!



Qadrtonim «Tong yulduzi»! Sen bolajonlarimizning murg'ak qalblariga ma'naviyat urug'ini sohasan, xonadonlarimizga shodlik olib kelasan.

Yaqinda o'z sahifalaringda «Tabriklar burchagi» tashkil qilib, yana bir xayrli ishga qo'l uribsan. O'qib juda quvondik. Fursatdan foydalanib men ham nabiramiz Azizbek Ikromovni 2-dekabr tug'ilgan kuni bilan tabriklayman. Bobo-buvijonlari, ota-onasi baxtiga hamisha sog' bo'lsin. 2007-yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna varaqasi mendan nabiramga sovg'a bo'lsin.

Bobosi Karimjon NURALIYEV.

Yo'lingiz tushib, Buxoroga kelsangiz, Olot tumanidagi 20-Bolalar va o'smirlar sport maktabimizga albatta kiring. Respublikamizning olis bir tumanida qad rostlagan jahon talablari darajasidagi bu majmua haqida birovdan eshitsangiz, hecham ishonmagan.

bo'lardingiz. Sportning

barcha sohalari yo'lga qo'yilgan bu maktabda biz sportsevar bolajonlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni

bilan ko'ringiz lozim. Murabbiylarimizning mehribonliklarini aytmaymizmi?! Sabohat opa Cho'liyeva murabbiylik qilayotgan sportning badiiy gimnastika turida 30dan ziyod qizlar, 20dan ortiq o'g'il bolalar shug'ullanishadi. Ularning Aziza Nuriddinova, Lyuda Saidxonova kabi shogirdlari viloyatda 1-o'rinni, respublika «Umid nihollari» sport musobaqalarida ham muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelishyapti.

Biznikidek sport maktablari, shart-sharoitlar respublikamizdagi barcha tengdoshlarimizga ham nasib qilishini juda-juda istardik.

Chinora ALIMOVA,
Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 2-maktab o'quvchisi.

Sog'lik – katta boylik!

Qish oylarining boshlarida oyim qattiq betob bo'lib qoldilar. Ko'chaga chiqsang, sovuqdan eting junjikadi, issiqqina uyda mazza qilib o'tiray desak, qornimiz och. Qolaversa, bemor yotgan onam, ikki kundan buyon biz bilan birga qaynatilgan suv ichib yotgan ikki oylik chaqaloq singlim... O'zim o'n ikki yoshda bo'lsam, qanday qilib pul topay? Hatto kasalxonada yotgan otamning holidan ham bir haftadan buyon xabar olganim yo'q. Sekingina oyimning yotoqlariga kirib, shkafdan o'zim va singlimning kichkina bo'lib qolgan kiyimlarini oldim-da, uyimiz yaqinidagi eski kiyimlar sotadigan bozorchaga yo'l oldim. Yelim xaltamning ustiga narsalarni yoyib olib, sovuqda titrab turganimni ko'rgan bir rus ayoli rahmi keldi chog'i, qo'limdagi kiyimlarni olib, menga pul berdi. Bu mening birinchi pul topishim edi. O'sha kuni men yog', un, piyoz, kartoshka olib kelib, onajon, bugun issiqqina ovqat ichamiz,

degandim. Onajonim xursand bo'ladilar, deb o'ylagan edim. Aksincha, ular meni koyiy boshladilar. Sababi, eski bozorga borish uchun ikkita katta yo'lni kesib o'tishga to'g'ri kelardi. O'sha kuni onajonim xonim pishirib, otamni ham k o ' r i b kelgani ketdilar. Men esa singlim bilan qasqondagi xonimlarni chiroyli qilib kesdim-da, uyimiz atrofidagi xususiy do'kon va shifoxonalarga olib chiqib sotdim.

Xonim yeb ko'rganlar:

–Hoy bolakay, bizga har kuni ovqatlar olib kelib turgin, xo'pmi, - deyishdi. Xonimdan tushgan pulga yana ro'zg'orlik qilib, shu tariqa pul topishni o'rgandim. Meni o'rtoqlarim «Xonimchi» deb chaqira boshlashdi. Oilamiz ko'rgan qiynchiliklarni, bizning holatimizni yashirib turgan beton devorlar, yig'lab-yig'lab tong ottirganimni boshimdagi yostig'im biladi. Mayli, mana hammasi o'tib ketdi. Do'stlarimdan xafa emasman. Faqat bitta tilagim–hech kimning ota-onasi kasal bo'lmasin.

Shahzod TO'RAYEV.

Onangiz betob bo'lmasin ekan

OLOTIMIZGA BIR KELING...



o'z ko'zingiz

bilan ko'ringiz lozim. Murabbiylarimizning mehribonliklarini aytmaymizmi?! Sabohat opa Cho'liyeva murabbiylik qilayotgan sportning badiiy gimnastika turida 30dan ziyod qizlar, 20dan ortiq o'g'il bolalar shug'ullanishadi. Ularning Aziza Nuriddinova, Lyuda Saidxonova kabi shogirdlari viloyatda 1-o'rinni, respublika «Umid nihollari» sport musobaqalarida ham muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelishyapti.

Biznikidek sport maktablari, shart-sharoitlar respublikamizdagi barcha tengdoshlarimizga ham nasib qilishini juda-juda istardik.

Chinora ALIMOVA,
Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 2-maktab o'quvchisi.

Yangi kitoblar

ERTAKLAR OLAMIGA SAYOHAT

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi kichkintoy uka va singillaringizga bir nechta sovg'a tayyorladi. Bular muallif Valeriy Proninning «Qiziqarli matematika» va «Ertaklar olamiga sayohat» nomli kitoblaridir. Ushbu kitoblar ularga albatta manzur bo'ladi, deb o'ylaymiz.

«Qiziqarli matematika» kitobi kichkintoylarga hisoblash, ya'ni qo'shish va ayirish kabi dastlabki amallarni oson o'zlashtirishda yaqindan yordam beradi. Bu amallar qiziqarli va quvnoq rasmlar asosida berilgan bo'lib, bolalar e'tiborini o'ziga tortadi. Kichkintoylar hisob amallarni bajari-



shda rasmlarda ko'rsatilgan predmetlar sonini hisoblab, hosil bo'lgan natijani bo'sh kataklarga yozib qo'yishadi.

Kitobdagi ba'zi amallar esa bolalarni mantiqiy fikrlashga ham o'rgatadi.

Berilgan vazifalarni aniq va puxta bajargan kichkintoylar qiziqarli matematika olamiga ilk qadamlarini qo'yishadi.

«Ertaklar olamiga sayohat» kitobida

esa ular «Bo'g'irsoq», «Suv parisi», «Doktor Aybolit», «Buratino» kabi sevimli ertaklar qahramonlari bilan uchrashishadi. Xullas, ikkala kitobdagi rasmlarni rangli qalamlar bilan bo'yab chiqishadi. Agar rang tanlashga qiynalsalar, albatta siz ularga maslahat bering.

La'lixon IGAMOVA.



Elchixonadan faks



YOSHLAR KIMGA ERGASHAR?

– Qadrli matbuot xodimlari! Dolzarb mavzular e'tiboringizdan chetda qolmasligi shubhasiz, shu sababli ham kuni kecha qabul qilingan bayonotni bolalar va o'smirlar gazetasiga yo'llashni lozim topdim. Din niqobi ostidagi turli harakat va guruhlarining butun dunyoda ildiz otib ketgani, ular tomonidan amalga oshirilayotgan qo'poruvchilik harakatlari sabab dunyo miqyosida islom diniga nisbatan o'ta noto'g'ri munosabat shakllanmoqda. Afsuski, g'o'r yoshlarning aksariyati ana shundaylar ta'siriga tushib qolmoqda. Bunday aчинаrli holga nisbatan Saudiya Arabistoni podshohi – ikki muqaddas masjid xodimi Abdulloh bin Abdulaziz musulmon dunyosini birlashish va ahillikka chaqirdi, - deya maktubini yo'llabdi Saudiya Arabistoni Podshohligining O'zbekistondagi elchixonasi matbuot kotibi Muhammad Buxoriy janoblari. – Podshohning ushbu bayonoti Makka shahrida o'tgan Islom ligasi tashkilotining 39-sessiyasi arafasida e'lon qilindi. Saudiya davlati rahbari o'z chiqishida dunyo musulmonlarini Qur'oni karim va sunnatga suyangan holda bahamjihat yashashga, bir-biriga yelkadosh bo'lishga da'vat etdi.

Rasmiy Ar-Riyod terrorning har qanday ko'rinishlarini qoralashini ta'kidlagan Saudiya Podshohi mazkur global jamiyatga qarshi kurashda dunyo mamlakatlarini hamjihat amaliy harakatga chorladi. Musulmonlar yashaydigan davlatlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarini yana-da mustahkamlashni fan va madaniyat sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarni tadbirlarga jalb qilish kerakligini ta'kidladi. Qirg'izistonda bo'lib o'tgan «O'rta Osiyo musulmonlarining madaniy meroslari» nomli konferensiyaning natijalarini yuqori baholadi.

Muharrama PIRMATOVA tarjimasii.



targ'ibot vositalari chop etilmoqda.

«Kamolot»ning dasturiy maqsadlariga erishishda yoshlarning bevosita ishtirok etish mexanizmlari yaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda yoshlar yetakchilarini tayyorlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarda novatorlik ko'nikmalarini shakllantirish bilan shug'ullanadigan «Yetakchi» o'quv markazi faoliyat yuritmoqda.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati huzurida tuzilgan «Kamalok» respublika bolalar tashkilotining tuman, shahar va viloyatlarda 4,2 million nafardan ortiq maktab o'quvchisini birlashtirgan bo'limlari ishlab turibdi. «Kamalok»

bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviyat va ma'rifat sohasi, ularning jonajon

o'lkamiz tarixi, madaniyati bo'yicha bilimni kengaytirishga harakat qilmoqda.

O'quv jarayonining sifati, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun sharoit yaratish o'quv yurtlaridagi boshlang'ich tashkilotlar e'tiboridan chetda qolmoqda. Bundan tashqari, o'quv yurtlarini tugatgan bitiruvchilarni ishga joylashtirish, yosh mutaxassislariga malaka oshirishda ko'maklashish borasida «Kamolot» olib borayotgan ishlar ham talab darajasida emas. O'z ishini boshlash istagidagi yosh fermerlar va tadbirkorlarga yordam ko'rsatish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti.

Asosiy yo'nalishlar «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining qurultoyi delegatlari muhokamasiga havola etilgan yangi tahrirdagi Nizom va Dasturida o'z aksini topdi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy kengashi raisining birinchi o'rinbosari G.A'zamova ushbu hujjatlarning yangi tahrirdagi loyihasi to'g'risida axborot berdi.

«Kamolot»ning Nizom va Dasturiga zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish maqsadida tashkil etilgan maxsus markazga respublikamizning turli hududlarida yashayotgan yoshlardan 5 mingdan ortiq taklif tushdi. Tayyorlangan ushbu hujjatlar loyihasi harakatning boshlang'ich tashkilotlari, shuningdek, maxsus ochilgan saytlarda, yoshlar gazetalarini sahifalari, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda keng muhokama qilindi.

Yangi tahrirdagi Dasturda «Kamolot» harakati o'z faoliyatini amalga oshiradigan oltita asosiy soha belgilab olindi. Ular – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida, ma'naviyat va ma'rifat, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, shuningdek, iste'dodli va qobiliyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, yosh avlod salomatligini

HAMMA YAXSHI NARSALAR VATANDAN BOSHLANADI

–Allo, Toshkentmi? «Tong yulduzi» gazetasimi? Men Buxorodan qo'ng'iroq qilyapman. Ismim Behruz Avazov.

–Yaxshi.

–Sizlarga she'r yuborgandim. Chiqmadi. Mening nomimga yuborgin, o'zim yaxshilab o'qib chiqib, keyin chiqaraman, degandingiz. Yoki yetib bormadimi xatim?

–Shunaqaga o'xshaydi. Sen gazetamizni har bir sonini o'qiysanmi?

–Ha, kutubxonachimiz bu yil ham hammamizdan 600 so'mdan yig'ib oldilar. Yana yangi yilda «Tong yulduzi»ning yangi sonini navbatma-navbat uyga olib ketamiz. Ukalarimizga, ota-onalarimizga ham o'qib beramiz. Keyin sinfda hammasini yig'ib, tikib qo'yamiz.

–She'ring chiqadi albatta! Qani uni menga o'qib ber-chi!

–«Vatan» haqidagisini o'qiymen. Hamma yaxshi narsalar Vatandan boshlanadi-da. To'g'rimi?

–To'ppa-to'g'ri. Tezroq ayt, yozib olaman. Keyin qanday bo'lsa, shundayligicha gazetaga berib yuboraman. She'ringning bahosini tengdoshlaring beradi.

Osmoning musaffo, ko'kda oy to'lin,
Hilpirar bayrog'ing balandda turib.
Vatanlar ichida eng mard bo'lib,
Porloq istiqboling olayapsan qurib.

Bir hovuch tuprog'ing oltin zarrasi,
Oq ko'ngling oynasi – paxtalar chaman.
Qalbmida yaratding eng ezgu tuyg'u,
O'zbekistonim o'zing – yagona Vatan.

Shofirkon tumanidagi 4-maktabning
7-«D» sinf o'quvchisi Behruz AVAZOVga
ijodiy omadlar tilab, uning
va do'stlarining yangi-yangi
xat va qo'ng'iroqlarini kutib qolamiz.
Salimjon IN'OMZODA suhbatlashdi.



mustahkamlash, xalqaro hamkorlik sohalarida faol ishtirok etishdir.

«Kamolot»ning yangi Nizomida yoshlarni kasbga yo'naltirish va ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy yordam markazlari tarmog'ini kengaytirish, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish borasida boshqa jamoat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining tashkiliy tuzilmasi, a'zolarining huquq va majburiyatlari belgilandi. Endilikda unga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan har bir yigit-qiz a'zo bo'lishi mumkin.

Qurultoyda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy nazorat-taftish komissiyasining hisobot davridagi faoliyati to'g'risida «Yosh kuch» jurnali bosh muharriri Yu.Jo'rayev ma'ruza qildi.

Delegatlar muhokamasidan so'ng «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining yangi tahrirdagi Nizomi va Dasturi qabul qilindi.

Qurultoyda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Markaziy kengashi tarkibi saylandi. A.Alimov Markaziy kengash raisi etib saylandi.

Qurultoyda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari R.Qosimov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi A.Azizxo'jayev, Toshkent shahar hokimi A.To'xtayev ishtirok etdi.

O'zA muxbiri.

Yoshlar Ijtimoiy Harakatining II qurultoyi

KAMOLOT

Toshkentda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ikkinchi qurultoyi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-oktabrda qabul qilgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yana-da oshirish to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida o'tkazildi.

Qurultoyda «Kamolot»ning tuman, shahar va viloyat bo'limlaridan delegatlar, Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralar, jamoat birlashmalari rahbarlari, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ma'naviyat-ma'rifat sohasi vakillari ishtirok etdi.

Anjumanda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy kengashi raisi A.Alimov harakatning o'tgan besh yil davomidagi faoliyati to'g'risida ma'ruza qildi.

Qurultoyda o'tgan besh yil mobaynida ushbu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilgani ta'kidlandi. Chunonchi, respublikamizda yoshlarga huquqiy va tibbiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga yo'naltirish va o'qitish, ish bilan ta'minlashga yordam beradigan ijtimoiy xizmat markazlari tashkil etildi. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida festivallar, ko'rgazmalar va ijodiy tanlovlar o'tkazilmoqda. Jumladan, «Kamolot» a'zolari «Kelajak ovozi», «Yilning eng yaxshi g'oyasi» respublika tanlovlari, intellektual olimpiadalarni o'tkazishda faol ishtirok etmoqda.

«Kamolot» faoliyatiga kiradigan sohalaridan yana biri – sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdir. Bu ish bilan barcha hududlarda tashkil etilgan yoshlar resurs markazlari shug'ullanmoqda. Bu borada mahallalar, o'quv yurtlarida seminarlar, uchrashuvlar o'tkazilmoqda, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali


IQTIDORLAR BESHIGISAN, ONA YURT!

Bir kitobda o'qigandim, o'n ikki yoshida OLAMSHUMUL VOQEA, 15 yoshida IQTIDOR, 20 yoshida el qatori... Biri shoira, biri publisist, biri dizayner - ijodkor bo'lib, 15-16 yoshida iqtidorini namoyish etayotgan qizlarga qarab ertasini o'zi yaratadi bular, deb o'yladim.

Ayting-ayting, ayrim tengdoshlarim kabi qaysidir yo'llarda, mol-davlatli yoki tazyiqli qo'llarda ovozi so'nib, qobiliyatlari sinib qolmasin-da...

Xavotirimni ular yozgan satrlar («Men bobomga so'z berganman» - Kamola Sharofuddinova), («Shoirlik aslida osmoniy bir baxt...» - Gulnora Karimova) qushdek uchirib yubordi. Olamimda shovullagan azim daraxtlar-u, ular yonida umid bilan nish otayotgan nihollar qoldi.

O'zbekiston Milliy Matbuot markazi binosida katta tantana: Istiqlol tengdoshlari-uch o'smir qizning ijod namunalari namoyishi o'tkazilyapti. Biri Ozod Sharofuddinovdek zukko insonning xonadonidan, minglab kitoblar yig'ilgan tabarruk dargohdan (A.Oripov so'zi) chiqqan - Kamola SHAROFUDDINOVA.



MILLATIMIZ RAMZISAN, ATLAS!

O'zbekiston deb atalmish yurtida yashash o'zi bir baxt.

Nimasi baxt deb so'rarsiz? Jannatmakon yurtimiz shunday bir geografik makonda, Markaziy Osiyoning naq markazida joylashgan. Yilning to'rt fasli ham bu o'lkada o'z husnini namoyon etadi. Ayniqsa, bahorda dov-daraxtlar kurtak chiqarib, gullab o'zgacha bir tarovatga ega bo'ladi. Ayni shu paytda ipak qurti uyg'onib, ipak o'rashga hozirlik ko'radi. Shoxlarga yopishgan oppoq pillalarni ko'rib, qor yog'ibdi, deb o'ylaysan. Ana shu pilla o'zbek qizlarining bir chiroyiga yuz chiroy qo'shgan atlas, adras, shohi matolarning manbai ekanligini o'ylab, qoyil qolasan. Ehtimolki, ushbu matolarni yaratishda bobolarimiz o'lkamizning go'zal husn-tarovatidan, fasslarning rang-barangligidan nusxa olishgan bo'lsa, ajab emas.

To'y-hashamlarni, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettiruvchi bayramlarda, Navro'z, Sayllar, Sumalak kabi tadbirlarda kelinlarimiz, qizlarimiz milliy kiyimlarimizga alohida bir e'tiqod bilan qarab kiyinishlarini ko'rib, hammaning havasi keladi. Chet ellarda sayohatda bo'lganimizda ham yurtimiz ramzlarini ko'rib, hayajondan ko'zimizga yosh keladi. AQSHda Nyu-York shahrining qoq markazida BMTning Markaziy binosi joylashgan. Bino oldidagi katta maydonda turli xil davlatlarning bayrog'i osilgan. Beixtiyor O'zbekiston bayrog'ini qidirib boshladim. Savlat to'kib yuqorida hilpirab turgan bayrog'imizni ko'rib, juda g'ururlanib ketdim. O'zbekiston bayrog'i ko'k, havo rang ipak matolarimizdan tikilib, o'rtasiga zar iplar bilan gerbimiz tushirilgan.

Bining ichiga kirib, dunyoning juda ko'p mamlakatdan kelgan vakillarning suratini tomosha qildik, shunda e'tiborimni ba'zi bir mamlakatlardan kelgan vakillarning milliy liboslarida aks ettirilgan suratlaritortdi. O'zbekistonlik vakillar ham o'zimizning ipak matolarimizdan tikilgan gerbimiz aks etgan milliy liboslarimizda qatnashsalar, qanchalik salobatli va ulug'vor bo'lib ko'rinar edilar, deb o'yladim.

Bizning atlasdan tikilgan kiyimlarimizni

Qizimiz Kamolaxonning qalami charxlanib borayotir. U hali ijodkor sifatida ham navnihol. Lekin katta ijod ham nihollikdan boshlangan-ku! Uning mashqlarini o'qib ko'ring. Keling, Kamolaga birgalikda oq yo'l tilaylik!

Abdulla ORIPOV, O'zbekiston Qahramoni.



ko'rgan chet ellik sayyohlar, xorijliklar, hatto yurtimizga tashrif buyurayotgan chet ellik davlat arboblari ham ushbu matomizga qiziqish bilan qarashmoqda. Bir so'z bilan aytganda, atlas O'zbekiston ayollarining milliy ramzidir.

Biz atlas deganda Marg'ilonni eslamay ilojimiz yo'q. Bugun atlas ishlab chiqaradigan makon - Marg'ilon shahri o'z 2700 yillik tarixini nishonlamoqda. Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan bu shahar qadimiy madaniyati va navqiron qadriyatlarini bilan ko'pchilikning e'tiborini tortmoqda. Ehtimolki, atlasimizning tarixi ham 2700 yildir. Atlasimizning xom-ashyosi ham ipak ekan, bu uyg'unliklar ham xayolimizni tortib ketadi.

Shu joyda nogahon bolaligimda buvijonimdan eshitganim bir rivoyat esimga tushaveradi. Qadim zamonda bir zolim xon barcha to'quvchilarni yig'ib, menga dunyodagi eng chiroyli matoni to'qib berasizlar. Unda osmonning musaffoligi, suvning zililligi, tongning chiroyi-yu tabiatning go'zalligi namoyon bo'lsin, debdi. Shunda to'quvchilar xonga turli matolarni olib kelib ko'rsata boshlashibdi, biroq xon barchasini qal ettirish uchun zindonga tashlabdi. Shunda bir to'quvchi yigit tuni bilan zindondagi do'stlarini o'ylab, ko'zlariga uyqu kelmabdi va gulxan shu'lasida chiroyli ranglar jilosini ko'ribdi.

Va tezda dastgohiga o'tirib, tongga qadar mato to'qibdi.

Balki to'quvchi yigit atlasni yaratishda gulxandan nusxa olgani sababli, qizlarimiz ushbu matoni ko'ylak qilib kiyganida yal-yal yonib, alvonday tovlanib ketishsa, ajabmas!

Men o'ylardimki, mana shunday matolarimiz jahon bozoriga chiqsa, ushbu matolardan o'zbekistonlik mashhur dizaynerlar kolleksiyalarini yaratishib, ko'proq dunyoga tanitishsa. Qolaversa, oliyjanob maqsadli insonlar qo'li bilan yaratilgan matolarimiz dunyo go'zallarining chiroyiga-chiroy, ko'rkiga-ko'rk qo'shsa, yomonmi?

Kamola SHAROFUDDINOVA.

Kamolaning maqolalarida hur va mustaqil ona Vatanimiz, uning bepoyon, go'zal tabiati, tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayotiga oid mavzular o'rin olgan. Ayniqsa, yoshlar hayoti, o'qishi, bilim olishiga intilishlari tasvirlangan maqolalari diqqatga sazovordir.

Nazira ABDUAZIZOVA, tarix fanlari doktori.

-Men 1991-yil 21-noyabrda dunyoga keldim, deb yozadi Kamola.-otam Ichki ishlar Vazirligida, onam Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida ishlaydi.

1998-yilda ota-onamning xizmat faoliyati munosabati bilan Namangandagi 58-o'rta maktabning 1-sinfiga o'qishga bordim.

1999-yildan Toshkentdagi ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasining 2-sinfida o'qishni davom ettirdim. Hozirda ushbu gimnaziyaning 9-sinfida tahsil olayman.

Yozgan maqolalarim yoshlarning siyosiy-ijtimoiy, huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda vatanparvarlik, fidoyilik, o'zlikni anglash kabi xislatlarini o'zida mujassam etgan g'oyalarga sodiq, O'zbekiston yoshlarining birlashtirishga qaratilgan.

Hozirda «Men bobomga so'z berganman» nomli kitobcham nashrdan chiqdi. «Oq yo'llar» nomli to'plamim nashrdan chiqish arafasida.

Bunday tarjimat holni 20 yillar avval 15 yoshli qizaloq yozishi mumkinligi hatto tushimizga ham kirmagandi.

Yana bu qizaloqning kitobi nufuzli dargohda, ijod sarbonlari huzurida taqdim etilishini o'ylasak, Istiqlol bizga juda ko'p narsalar berganiga amin bo'lamiz.

-Men G'aniyeva Maftuna Sobirovna 1990-yil Samarqand viloyati, Ishtixon tumanida ziyoli oilasida tug'ilganman. 1997-yil Ishtixon tumanidagi 37-o'rta maktabga qabul qilindim, 1998-yilda Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 18-o'rta maktabda o'qishga bordim. Hozirda Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasi 10-«A» sinfida o'qiyman, - deb yozadi tengdoshlari



Men bobomga so'z berganman...

uchun go'zal liboslar tikib, o'z ijod mahsulini odil ustozlar huzurida namoyish qilgan Maftunaxon.

Har uch qizaloq ham bir bilim maskani o'quvchilari ekan.

-Bunday iqtidorli shogirdlarimiz bilan har

Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, har jihatidan rag'batlantirish barkamol avlodni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismidir. Zero, bu bir tomondan, muayyan yoshda iste'dodi kurtak otgan o'g'il-qizlarimizni ruhlantirib, kelajakda baquvvat ijodkorlar, Vatan ravnaqi uchun fidoiy kishilar bo'lib yetishishiga turki bersa, ikkinchi tomondan, boshqa tengdoshlariga ham ta'sir qilib, hayotida munosib o'rin egallash ilm-ma'rifatga rag'batlantiradi.

Najmiddin KOMILOV, filologiya fanlari doktori.

qancha faxrlansak arziydi. Nafaqat uch ijodkor qizimiz, balki bizda yurt kezgan, elga tanilgan raqs va go'shiq dastamizning yulduzlari ham bor, - deydi gimnaziya direktori Gulandom Subxonova.

Havaskor shoira Gulnora Karimovaning ilk to'plamidan joy olgan she'riy mashqlarini o'qir ekansiz, uning olam, zamon va hayot haqidagi o'z qarashlarini goh o'yechan, goh quvnoq ohanglarda ifodalashga harakat qilganini kuzatatis.

Gulnoza she'riyat bog'iga intilyapti. O'ylaymizki, ushbu to'plam yosh qalamkashning intilishlariga juft qanot bo'ladi, deb niyat bildiradi kitobni chop etgan «Yangi asr avlodi» nashriyoti.

O'smir qizaloqlar dadil va ravshan qalb tug'yonlarini o'z asarlarida namoyon qilishgan ekan, ularga aziz ustozlar katta umid bog'lashi shubhasiz. Chunki o'ziga ishonganlar g'alaba qiladi, o'ziga ishonganlar ijod chamaning chin bulbullariga aylanadi.

Asriy bobolar orzusi ushalgan davr-Istiqlol bolalaridan har qancha umid qilsak arziydi. Axir hamma yaxshi narsalar bolalarga, hamma ezgu ishlarimiz kelajak uchun, deb yashayaptiku kattalar.

Yaxshiliklar ko'rib o'sar qizaloqlar, Yaxshilikka ko'rib o'sar qizaloqlar, Yaxshilikka qilar amal qizaloqlar, Katta bo'lib olsin avval qizaloqlar.

O'z muxbirimiz.

SINFIMIZGA GAP YO'Q

- Uff, qachon tugaydi dars? Ustoz stol urdi «qars!!!» «Bolalar, bo'linglar jim!» Quloq solmaydi hech kim. Kimdir uxlash bilan band, Kimdir baqirar baland. Birov chiqsa doskaga, Qarar so'ngra partaga. Kim gazeta o'qiydi, Kim latifa to'qiydi?.. Kimdir yemoqda ovqat, O'rtada avjda suhbat. Qizlar oynaga qarar, Berkinib sochin tarar, Sekin surar lab bo'yoq, Quruq qolmaydi tirnoq. Daftarlarda-chi, faqat, Yozilgan ishq-muhabbat. Sevginu etish-chun fosh, Uchib borar qog'oz tosh. Gar borolmasa to'g'ri, Qiziquvchilar o'g'ri. Boshlanadi to'polon, Maktubcha qolmas omon. Boshin ushlaydi ustoz, Baribir tinmas ovoz. Dars o'tmoqchiydi, biroq, Bo'ldi rohat qo'ng'iroq.



OTAM

Har bir imoratga ustun kerakdir, Yurak-chi insonga butun kerakdir, Yo yil yo oydamas, har kun kerakdir, Siz, mening shunchalar darkorim otam.

Doim bolam deya o'y-xayol surgan, Yo'lga koyigan, ko'p yaxshi ko'rgan, Aybimni ohista so'z bilan urgan, Tuz bergan, ham nomus, ham orim otam.

Go'daklik chog'imda yurgan opichlab, Chaqirgan, gul qizim, onam, deb atab, Turar bir yutug'im, yuz marta maqtab, Otalar ichra betakrorim otam.

QISHKI GO'ZALLIK

Olloh inson umrini oq-qoraga ajratgan, Yashashdan tonmasin deb go'zallikni yaratgan. Bu go'zallik mujassam tabiat chehrasida, Bahor guli, kuz bargi, qishning qor zarrasida. Bunga amin bo'lgan shu dam qorga termulib, Ko'zimga quvonch to'lar teran o'y-xayol surib.

Oyna tomon urilib mayda qor parchalari, Ajib surat aks etar tovlanar zarchalari. Derazamni ochaman, sovuq qurshab oladi, Dilimga ajabtovur, ta'rifsiz zavq soladi.

Zurimga sachrayotgan qorlar qanday beg'ubor, Sochlarimni siladi musaffo qishki ifor. Derazam yonidagi daraxt kiygan oq libos, Ayni damgi manzara asl qishgagina xos.

U erur qanday go'zal, erur naqadar nafis, Yuragimda uyg'otar jo'shqin hayajonli his. Qo'limga qor olaman butun kaftim to'ldirib, U taftimdan eriydi tomchilab so'ng suv bo'lib. Sovuq butun tanamni chertishni bas qilmaydi, Lek qorga maftun qalbim nazariga ilmaydi.

Parishon kuzataman tabiatning yuzini, Fikrim jamlab olaman sovuq aytar so'zini. Qor zahridan sovuq yeb derazamni yopaman, Xayol hukmidan kechib, o'z olamim topaman.

Ammo, yana tabiat chorlaydi o'y-tuyg'uga, So'ngra namini jilmayib, sekin ketdim uyquga. Ko'chada-chi, qor hamon vazmin yer bag'rin ezar, Qor parchalar o'ynoqlab, atrofini oppoq bezar.

U pag'alab yog'moqda, har ko'ngilga yoqar hush, Shunday beg'ubor qorning yog'ishini ko'raman tush.

Gulnoza KARIMOVA.

Ulug'bek MUSTAFO. Bu nom «Tong yulduzi»ning hozirgi o'quvchilariga unchalik tanish bo'lmagani mumkin. Lekin ularning ota-onalari adabiyot ixlosmandi bo'lishsa, Ulug'bek akani juda yaxshi tanishadi. Chunki 80-yillarda bu ijodkorning nomi gazeta sahifalaridan tushmasdi. «Po'latning qalamlari», «Velosipedning puli», «Navbatchilik kuni», «Non qadri», «Nomus» kabi ko'plab qiziqarli hikoyalarining mazmuni hali-hanuz yodlarida bo'lsa ham ajabmas.

Asli surxondaryolik bo'lgan Ulug'bek aka hozirda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani Xalq ta'limi bo'limida uslubchi bo'lib ishlash bilan birga 26-o'rta maktabda o'quvchilarga tarix fanidan saboq ham berib kelyaptilar. Ijodkor ustozning uzoq yillik samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholanib, «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni hamda «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandi. «O'kinch», «Insof», «Akmalning o'yinchoqlari», «Ehtirom» nomli hikoyalar to'plamlari allaqachon o'z o'quvchilarini topgan.

–Avvallari tahririyatga biror hafta kelmay qolsam, xuddi bir narsasini yo'qotgan odamdek his qilardim o'zimni, deya so'z boshladi tunov kuni tahririyatimizga kelgan Ulug'bek aka. –Keyinchalik odam ish, turmush tashvishlari bilan o'zidan ortmay qolarkan. Anchamuncha bolalarbop hikoyalar yozib qo'ygandim. Lozim topsangiz...

Quyida Ulug'bek Mustafoning yangi hikoyalaridan birini e'tiboringizga havola qilyapmiz. Sizlarga ham manzur bo'ladi, degan umiddamiz.



So'riga ko'rpa to'shagan ham, atrofni supurib-sidirgan ham u.
–Barakalla, o'zinning buvijonim, – deydi Qurbon akaga qiziga mehri tovlanib.
Dadasi bu so'zni ko'p takrorlagani uchun ham bir kuni Ziyoda qiziqsinib, oyisidan so'radi:
–Nega dadam meni buvijonim deydilar? Siz ko'rganmisiz ularni?
–Ko'p eshitganman, bolam. Dadangning

NOVCHA QIZNING YUTUG'I

buvilari Karomat xola kolxozning eng oldi, chevar terimchilaridan ekan. Buning ustiga bo'yi-basti ham novcha, kelishgan juvon bo'lgan deyishadi. Kim bilsin, dadang seni o'shalarga o'xshatsalar kerak-da.

Ziyoda tushundi. Demak, u katta buvisiga tortgan. Ammo unga o'xshab mehnatkash bo'la olarmikin?

Ziyoda bir kuni uyga odatdagidan xursand qaytdi. Munira xola oshxonada xamir qorish bilan band edi. Uni ko'rishi bilan:

–Qizim, yaxshi kelib qolding. Qo'yaringga bir bog' pichan tashlab qo'yg'in. Boyatdan beri

jonivorlar ma'rab, jag'i-jag'iga tegmayapti-ya, –dedi.

–Hozir, –Ziyoda shunday dedi-yu, o'zi uchun quvonchli xabarni tezroq yetkazishga oshiqdi. –Oyijon, meni tabriklang. «Umid nihollari» sport musobaqasida birinchi o'rinni egalladim.

–E-e, shunga shuncha vahimami? –onasi pinagini ham buzmay xamir qorishda davom etdi. –Innaykeyin, yugurishni qiz bolaga kim qo'yibdi...

Ziyodaning bir zumda hovuri pasayganday bo'ldi. Go'yo tarvuzi qo'ltig'idan tushganday arazchan qiyofaga kirdi. Shu tobda dadasi kelib qolsa bo'ladimi? Salomlashishni ham unutilib, gap boshladi:

–Dada-chi, dada, men bugun yugurish musobaqasida g'olib chiqdim. Endi tumanda qatnashaman.

–Barakalla qizim! O'zinning buvijonim. Sirayam bo'sh kelma! –Qurbon aka azbaroyi xursandligidan qizining kiftiga qoqdi. –Menga o'xshaysan-da, menga. Ko'rayapsanmi xotin, qizimiz chakki emas-a?

–Qiziqsiz-a, dadasi. Men sizga aytсам, sport qiz bolaning ishi emas.

–Nimalar deyapsan? Zamondan orqada qolgansan, xotin.

Qurbon aka qizi bilan boshlashib oshxonadan hovliga chiqar ekan: –Qizim, endi tuman musobaqasiga qattiq tayyorlanishing kerak, –dedi. –Imkon qadar erta turib mashq qil. Atrofni aylanib yugursang ham mayli.

–Voy, voy, nimalar deyapsiz? – suhbatga ichkaridan turib qo'shildi onasi. –Qiz bolaning birinchi navbatdagi vazifasi-uy yumushlari.

–Sen aralashma, – jerkib berdi dadasi. –Xudo xohlarsa hammasiga ulguradi.

O'sha kuni aksiga olib rosa yomg'ir yog'di. Yugurish yo'likalarida ham xalqobchalar hosil bo'ldi. Ammo kuzning sovuq yomg'iri ham tuman miqyosidagi «Umid nihollari» musobaqasining ko'ngildagidek o'tishiga to'sqinlik qilmadi.

Musobaqada anchagina epchil qizlar to'plangan edi. Ammo Ziyoda ham bo'sh kelmadi. Sveta ismli qiz bilan oxirgi damgacha kurashni davom ettirdi. Marraga yaqinlashgan sari o'zida qo'shimcha kuch topa bildi. Bor kuchini ishga solib, finishga intildi. Ur-re, u birinchi bo'ldi!

(Hikoya)

Oradan kunlar o'tdi. Bir kuni Ziyoda hovlidagi gullarga suv quyayotgandi. Shu payt dadasi ko'chadan xursand holda kirib keldi-da, qizini mehr bilan bag'riga bosdi:

–O'zinning buvijonim, qara, rasming tuman gazetasida chiqibdi, o'zingni taniyapsanmi? – Qurbon aka shunday deya qizini qayta-qayta quchardi. Ko'zlarida esa sevinch yoshlari halqalandi. –Buvijonim chempion! Xudo xohlarsa sen orzuimni amalga oshirasan...

Ertasi kuni Ziyoda maktabga borsa, shundoq zalga kiraverishdagi e'lonlar taxtasining oldida bir to'da o'quvchilar nimanidir qiziqib tomosha qilishardi. Qarasa, uning surati chiqqan gazetani osib qo'yishibdi. Shu payt hammaning nigohi unga qadaldi. Ziyoda sal o'ng'aysizlandi. Maktabdoshlarining hayratli hamda havasli nigohlarini tuyub, biroz dadillandi. Endi u bo'yining novchaligidan uyalmay, aksincha, faxrlanadigan bo'ldi.

Ulug'bek MUSTAFO.

Ziyoda sinfdagi eng novcha qiz hisoblanadi. Sinfdoshlari uyoqda tursin, hatto ba'zi pastroq o'qituvchilaridan ham o'tib ketayapti...

–Ba'zida uy vazifasiga javob bergani doska oldiga chiqib, o'ng'aysiz holatda qolgan paytlari ham bo'lgan. Shunday paytda ikki yuzi loladay qizarib-bo'zaradi. Novchaligiga sha'ma qilganday shu topda kimdir sekingina hushtak ham chalib qo'yadi.

Ziyodaning dadasi Qurbon aka unchalik novcha odam emas. Oyisi Munira opaning bo'yi dadasinikidan balandroq. Balki bu jihatdan Ziyoda ko'proq oyisiga tortgan bo'lsa kerak.

Ba'zida dadasi to'y-hashamlardan shirakayf uyga qaytsa, qayta-qayta ta'kidlaydigan bir gapi bor:

–Men ham yoshligimda yomon sportchi bo'lmaganman. Futbolni hatto sport maktabida o'qiydigan bolalardan ham yaxshiroq o'ynardim. Birdan-bir orzuim mashhur futbolchi bo'lish edi. Nima qilay, bo'yim kichiklik qildi. Bilsang, futbol o'ynashga novcha yigitlar kerak. Mirjalol Qosimovday iqtidorli futbolchilar kamdan-kam chiqadi, – deydi ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga ko'tarib. So'ng qoshlari chimirilib, yarim hazil, yarim chin tarzda qo'shib qo'yadi: –Bilsang onasi, seni bekorga tanlamaganman. Bo'ying novcharoq. O'g'il ko'rsak, sportchi bo'lishi turgan gap edi. Ammo...

Shu tobda uning ikki qizi borligi esiga tushadi chog'i, alamlil qo'l siltaydi. –Ha, mayli, shunisiga ham shukur...


Shunday paytlarda o'g'il bo'lib tug'ilmagani Ziyodaga biram alam qiladiki, asti qo'yaverasiz. Buning ustiga sal ixchamroq, chiroyligina qiz bo'lsa ham mayli edi... Ammo shunday bo'lsa-da, singlisi Surayyoga qaraganda dadasiga ko'proq yoqishini sezadi.

Dehqonchilik bilan shug'ullanadigan dadasi kun bo'yi dalada ishlab, charchab qaytadi. Bunday paytda oyisining ham uy yumushlari ko'paygandan-ko'payadi. Mol-holga qarash, ovqatga unnash deganday... Shunday kezlarda Ziyoda dadasining joniga oro kiradi.

MUSAVVIR BO'LMOQCHIMAN

Qadrli «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Men sizlarga o'zim chizgan bir nechta suratlarni jo'natyapman. Lozim topsangiz, gazetada chop etsangiz.

Zayniddin ZUHRIDDINOV, Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.



Tahririyatdan: Qadrli Zuhridin! Har bir insonning o'z ijod mahsuli bo'lishi kerak. Birovning suratiga qarab chizish, birovning maqolasini ko'chirib olishlar – o'g'rilik sanaladi. Siz ham yoshligingizga borib, rassomimiz Nodira Mirzayevaning rasmlarini o'xshatib chizishga harakat qilibsiz. Mashq tariqasida chizib ko'rganingizni oqlaymiz. Lekin biror boshqa joyga jo'natsangiz, unda mualliflik huquqini buzgan bo'lasiz. Iltimos, rasm fani o'qituvchingiz bilan o'tirib, yaxshi mavzularda ijod qiling-da, bizga jo'natavering.

Yoz kechasi.

Yosh Mirzo Ulug'bek suyakli bobosining yonida, yumshoq o'rindiqda pishillab uyqu olmoqda.

Sohibqironning uyqusi kelmay nevarasining yuziga tikilganxa xayolga berilgan edi.

–Umrim jang-u jadallarda, yurt qayg'usi yo'lida o'tmoqda. El tinch, yurt osoyishta bo'lganda, men ham olim bo'larmidim... Afsuski, mening yoshligim, yigitlik davrim yurtning chingiziylardan ozod etish yillariga to'g'ri keldi. Endi men uchun olimlik bir umrga ko'ngil armonim bo'lib qolur,

– u nevarasining yuzlarini siladi.

–Balki suyakli shu nevaram tufayli ko'ngil armonlarim ushalar.

Ulug'bek ilm yo'lidan ketsa, ming-ming rozi edim. Bizning avloddan ham ko'plab olim-u fuzalolar chiqmog'i kerak.

Sohibqiron deraza yoniga borib yulduz to'la qoramtir osmonga tikildi. –Bu yurtdan Ahmad Farg'oniy, Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriylar chiqqanlar va elimiz dovrug'ini jahonga yoyganlar. Ulug'bek ham alarning yo'llaridan borsa, elimiz sha'ni yana yuksak ko'tarilgay.

Ulug'bek uyg'onib bobosining yoniga keldi.

–Bobojon, nechun yarim tunda orom olmasdan, samoga ko'z tikib o'tiribsiz?

–Bu barchasi sizning yulduzlaringiz,

ULUG'BEKNING BOG'I

Hikoya

mirzom. Men alarga tikilib, kelajagingiz haqida so'zlashmoqdaman.

–Alar neni bashorat qilurlar?

–Aytadurlarki, Ulug'bek qilichdan ko'ra kitobga ko'proq mehr qo'ygandur. Rostmi shu gap, mirzom?

–Rost, buvajon, rost!

–Sizning yulduzlaringiz meni dunyoning narigi chetigacha hech bir yangilishmay olib borurlar.

–Mening yulduzlarim sizga zafar keltirgay, buvajon!

Sohibqiron suyakli nevarasining nimaga sha'ma qilayotganini darhol angladi. «Hindiston yurishi og'ir bo'lg'ay, ammo biz u yerdan ham zafar ila qaytgaymiz», deya ko'ngli-

dan o'tkazibdi. Va Hindistonga borib qaytguncha, bir yil davomida hamisha Ulug'bek haqida o'yladi. Nihoyat, 1399-yilning 28-mart kuni Amudaryo ustiga solingan solko'prikdan o'tarkan, nevarasini sog'inib esladi. U

o'zini kutib olgani chiqqan saroy xonimlari-malikalar bilan xotirjam salomlashdi. Undagi bu sovuqqonlikni ko'rganlar: «Amirimiz ancha toliqibdilar», degan xayolga borishdi. Ammo o'zi tomonga chopib kelayotgan nevarasini ko'rgan Sohibqironning xira ko'zlari nurga to'lib, birdan charaqlaganini ko'rishib gap nimada ekanligini darhol payqashdi.

–Siz ham keldingizmi, mirzom? – so'radi entikib.

–Ha, bobojon, men Sizni judayam sog'indim, – dedi Ulug'bek va bobosining bo'ynidan quchdi.

–Men Sizga xat jo'natgan edim, oldingizmi?

–Oldim, bobojon, o'qib xursand bo'ldim.

–Siz ko'p kitob o'qiyotgan emishsiz?

–Falakiyot ilmiga oid kitoblarni ko'p yaxshi ko'ramen, bobojon!

Temurbek Termizda bir necha kun qolib ketdi. Bobo, nevara daryo bo'yidagi Hakim at-Termiziy maqbarasi yonidagi chorbog'da dam oldilar. Qayiq bilan Payg'ambar oroliga o'tib, Zul Kifl mozorini ziyorat qildilar.

Bir haftadan keyin Saroy-mulkxonim Ulug'bek nomidan Sohibqiron sharafiga ziyofat berdi.

To'lqin HAYIT

Dehli va boshqa shaharlardan olingan boylikning bir qismi chorbog' yonidagi yalanglikda namoyish etildi.

Temurbek Ulug'bekni sinab ko'rish uchun uning qulog'iga shivirladi:

–Mirzo, ko'nglingizga nima yoqsa, o'shani oling!

Ulug'bek kumush barkashlardagi uyum-uyum turgan yoqut, marvaridlar-u oltin soplil qilichlar, gurzilar, qimmatbaho buyumlar oralab o'tib, ilmoqqa osilgan halqani qo'lga oldi-da, uni hayrat bilan tomosha qila boshladi. Halqa son-sanoqsiz kataklarga bo'linib, ularda qandaydir so'z va raqamlar mahorat bilan bitilgan edi. Halqa o'rtasida yupqa mis taxtakach ham bor edi. Ulug'bek uni aylantira boshlabdi.

–Tanlaganingiz shumi? – so'radi Temurbek.

–Ha, bobojon, men shuni tanladim, – javob qildi Mirzo Ulug'bek.

–Buning nimaligini bilasizmi?

Ulug'bekning ko'zlari piri-piradi.

Sohibqiron kulib dedi:

–Bu narsa – usturlob! U bilan falakdagi yulduzlar holatini aniqlaydilar.

Temurbek Ulug'bekni falakiyotshunos olim

Mavlonoga Ahmadga topshirdi. Mavlonoga Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso Xorazmiy, Abu Mahmud Xo'jandiylarning yulduzlar ilmi haqidagi ishlari xususida qiziqarli hikoya qildi. Bu hikoyalar yosh Ulug'bekni hayajonga soldi.

Bir kuni Shohruh Mirzo padari buzrukvor qoshiga kelib:

–Men ham Sizga havas qilib bog' yaratdim, Sizga yoqdimi? – deb so'radi.

Amir Temur shunday javob qildi:

–Sening bog'ing judo zebo va bebaho. Davlati bor har qanday

odam shunday bog'ni barpo eta oladi. Ammo Ulug'bek bunyod etadigan bog'ning qiyosi bo'lmag'ay!

–U qanday bog' ekan? – so'radi Shohruh Mirzo.

–Suyukli nevaram Ulug'bek barpo etadigan bu bog' ilm-u ma'rifat bog'i, deb ataladi. Bu bog'ning daraxtlari kitoblardir, mevalari esa hikmatlar sanalg'ay. Bir kun kelib men ham, sen ham bir hovuch tuproqqa aylanamiz, ammo Ulug'bek yaratgan bog' abadiy yashnab turgay!



«Obuna - 2007»

Aslida ham shunday, biz bolajon xalqimiz. Farzandlarimiz ko'pligidan g'ururlanamiz. Bo'y-lari bilan barobar ko'nglimiz bo'ylaydi, chiroyiga boqib ko'zimiz quvnaydi. Salomatliklari, bilim olishlari, hunar o'rganishlari haqida qayg'uramiz. Bu juda yaxshi albatta. Ammo ularning ma'naviyati haqida o'ylashni ko'pchiligimiz unutib qo'yapmiz, nazarimda. Bilimli, sog'lom bolajonlarimiz ma'naviyatli ham bo'lishsa, nur ustiga a'lo nur emasmi?

O'qigandirsiz, balki eshitgandirsiz, o'zbek xalq ertaklaridan birida yozilishicha, devor-darmiyon ikki qo'shni yashagan ekan. Ulardan biri nihoyatda badavlat, ammo befarzand, ikkinchisi esa o'ta kambag'al ekan. Kambag'al odamning uyidan doimo xursandchilik, o'yin-kulgu ovozlari eshilib turarkan. Boynikida esa sokinlik hukm surarkan.

Badavlat odam qorni nonga ham to'yamaydigan qo'shnisining shod-u xurram yashashi sababini bilolmay garang ekan. Shunda uning o'zidan so'rashga ahd qilibdi: «Bizda ikki dona oltin olma bor. Shularni u yoqdan-bu yoqqa dumalatib, xursand bo'lib o'ynab o'tiramiz-da», degan javobni eshitgan boy ham xotini bilan ikki dona oltin olmachani bir-birlariga dumalatib ko'rishibdi. Lekin bu mashg'ulot ularga hech qanday zavq bag'ishlamabdi.

Keyin bilsa, kambag'al qo'shnisi oltin olmalar deganda ikki nafar farzandini nazarda tutgan ekan.

Qissadan hissa shuki, farzandlarimiz har qanday boylukdan, dur-u javohirlardan-da azizroq ekanlar...

o'ringa namanganlik gazetxonlarni loyiq topdik. Chunki viloyatning 4336 nafar o'g'il-qizi 2007-yil davomida «Tong yulduzi»ni o'qiydigan bo'lishibdi. Ro'yxatimizning 3-, 4-, 5-o'rinlarini band qilib turgan Andijon, Farg'ona hamda Jizzax viloyatlaridagi obunachilarimiz soni ham ikki mingdan oshibdi.

Yaqinda Navoiy viloyatida safarda bo'lib, navoiylik o'quvchilar «Har o'n o'quvchiga bir donadan «Tong yulduzi» tashab-

GAZETA O'QIGAN BOLA

Bugungi kunda ko'plab o'smirlarimiz gazeta va jurnallar o'qib, ma'naviyatini boyitishdan ko'ra, kompyuter hamda billiardxonalarda qiziqarli o'yinlar o'ynashni ma'qul ko'rishayotgani hech kimga sir emas. «Hali yosh-da, aqli kirib qolar», deya yupatamiz o'zimizni. Lekin aqllari kirguncha ayni o'qib-o'rganadigan, bilim oladigan oltinga teng damlari o'tib ketayotgani tashvishga solmaydi bizni. Ularni to'g'ri yo'lga boshlash biz kattalarning, ota-onalar-u ustozlarning burchimizdir. Afsuski, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni hamma yerda ham qoniqarli deb bo'lmaydi. Buni gazeta va jurnallarga obunani tashkillashtirish misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston aholisining 50 foizga yaqinini voyaga yetmaganlar tashkil qilar ekan. Demak, yurtimiz aholisining 13 milliondan ziyodi bolalar va o'smirlar ekan. Endi diqqat-ingizni respublikada yagona bo'lgan bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi» obunachilari soniga qaratmoqchimiz: Yil boshida obunachilarimiz soni 60 mingdan oshganda, behad quvongandik. (Aslida-ku, 13 million bolaning bor-yo'g'i 60 ming nafari gazetxon ekanligining o'zi achinarli holdir). Ammo shu kichikkina quvonchimiz ham uzoqqa cho'zilmadi, oradan 3 oy o'tar-o'tmas o'quvchilarimiz soni sezilarli darajada pasayib ketdi. Bu nimaning dalolati? Bu obunaga mas'ul insonlarning «Obuna bo'ldingizmi? Bo'ldik!» qabilida «xo'ja ko'rsin»ga ish tutishganining dalolati emasmi? Shu kunlarda esa gazetamiz bor-yo'g'i 17 mingga yaqin o'quvchining xonadoniga kirib boryapti.

Yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari ko'rgazmasida ko'plab kutubxonachilar, maktab rahbarlari bilan uchrashib, obuna xususida suhbatlashgandik. Ulardan biri, bir sinf o'quvchilari «Tong yulduzi»ga yozilishsa, ikkinchi sinf o'quvchilari «Gulxan»ga obuna bo'lishyapti, deya g'ururlanib gapirdi. Nahotki



30-40 nafar o'quvchi tahsil oladigan har bir sinfni bir donadan «Tong yulduzi» hamda bir donadan «Gulxan»ga obuna qilishning imkoni bo'lmasa?!

Ayrim kutubxonachilardan maktab kutubxonasiga bir donagina «Tong yulduzi» kelishi haqida eshitib, nahotki kamida 600-700 nafar o'quvchi tahsil oladigan maktabga bittagina gazeta borsa, deya hayratlanganimiz, Namangan viloyati, Uychi tumanidagi 7-o'rta maktab o'qituvchisi Nasimjon aka Mamadaliyevning kuyunchaklik bilan aytgan gaplari oldida holva bo'lib qoldi. Chunki... Keling, yaxshisi bu haqida ustozning o'zlaridan eshita qolaylik:

«2006-yilning yoz oylarida Uychi tumani markazidagi bolalar kutubxonasiga borgandim. Kutubxonachidan «Tong yulduzi» gazetasini so'rasam, 2006-yil uchun kutubxonamiz bu gazetaga obuna bo'lmagan, degan javobni oldim. Nahotki, kattagina bir davlatning yakka-yu yagona bolalari va o'smirlari gazetasini o'qish baxtidan tumanimiz bolalari bebahra qolishgan bo'lsa?

Shularni o'ylasam, vijdonim qiynalib ketadi-da...»

Kuni kecha qo'limizga 2007-yil uchun rasmiylashtirilayotgan obuna bo'yicha ma'lumotni topshirishdi. Undagi raqamlarga ko'z yugurtirib, o'zimizcha ro'yxat tuzdik. 9735 nafar bolajonlarning sevimli gazetalarini bo'lmish «Tong yulduzi»ga allaqachon obuna bo'lishga ulgurgan Samarqand viloyati nomini ro'yxatimizning boshiga yozib qo'ydik. Ikkinchi

busiga qo'shilishgani, obunani uyushqoqlik bilan davom ettirish shayotganidan mamnun bo'lib qaytgandik. Raqamlar esa boshqacha «so'zlashyapti». Viloyatning 1526 nafarigina o'g'il-qizi bu nashrga obuna bo'lishganini eshitib, tashabbusning u darajada qanot yozmagani amin bo'ldik...

«Biz o'tgan yili «Tong yulduzi»ga obuna bo'lgandik, lekin yil davomida bir dona

ham olganimiz yo'q. Gazetani har haftada chiqaryapsizlarmi o'zi?» kabi fikrlarni bir emas, bir necha maktab rahbaridan eshitdik. Tahririyatimizga ham bunday mazmundagi xatlar tez-tez kelib turadi. Gazetamiz har haftada muntazam chop etilyapti. Lekin respublikamizning olis-olis tumanlari, qishloqlarigacha yetib borolmayotgani achchiq haqiqat. Bir yillik obuna pulini yig'ib olib, gazetani o'z vaqtida yetkazib berolmayotgan mutasaddi amakilarimiz obunachilarimizning bu kabi savollariga qanday javob berisharkin?

Bunday muammoning poytaxtlik o'quvchilarimizga daxli yo'q. Shunday bo'lsa-da, Toshkent shahri ro'yxatimizning oxirgi o'rinlaridan birini egallab turgani biroz ranjitadi kishini. Har yili obuna ro'yxatining oxirini band qilib turgan Sirdaryo viloyati bu yil o'z o'rmini Qoraqalpog'iston Respublikasiga bo'shatib bergan ko'rinadi. Bo'shatishga bo'shatibdi-yu, o'zi ham unchalik yuqorilamabdi, 11-o'ringa bazo'r ko'tarilibdi. Qoraqalpog'istonlik o'g'il-qizlarning esa atigi 143 nafari gazetamiz obunachisi bo'lishibdi. Bu haqida viloyat, tuman Xalq ta'limi bo'limi xodimlari, ustozlarimiz, yetakchilarimiz, farzandlari baxti, kamoli kalitini ularning yaxshi kiyinishlari-yu, yeyish-ichishlaridagina deb biladigan ayrim ota-onalarimiz jiddiy o'ylab ko'rishsa, foydadan holi bo'lmasdi. Zero, gazetxon, kitobxon bolalar qalbida faqat ezguliklar kurtak otishi tayin.

Feruza JALILOVA.

TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:
Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston
matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan 2003-
yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N: J-3073

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10